

OQSAROY: TARIXIY MADANIYAT VA O'ZBEKISTON MEROSI

Xolmuradov Farhod
SHDPI 3- bosqich talabasi

Annotatsiya:Maqola "Oqsaroy: Tarixiy Madaniyat va O'zbekiston Merosi" nomi bilan Oqsaroyning tarixiy, madaniy va me'moriy ahamiyatini yoritadi. Oqsaroy, Samarqand shahrining markazida joylashgan va buyuk Temuriylar davlati davrida muhim rol o'ynagan bir inshoot sifatida, O'zbekistonning boy madaniy merosini o'zida aks ettiradi. Maqolada Oqsaroyning qurilishi, uning tarixiy roli va zamonaviy arxitektura nuqtai nazaridan o'rganilishi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Oqsaroyning O'zbekistonning jahon madaniyati va turizm dagi o'rni, uning kelajakdagi saqlanishi va rivojlanish istiqbollari ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Oqsaroy, tarixiy meros, madaniyat, arxitektura, Temuriylar, Samarqand, O'zbekiston, me'moriy obidalar, turizm, madaniy meros saqlanishi.

Abstract:The article titled "Oqsaroy: Historical Culture and Heritage of Uzbekistan" explores the historical, cultural, and architectural significance of Oqsaroy. Located in the heart of Samarkand, Oqsaroy was a key structure during the Timurid dynasty and continues to embody Uzbekistan's rich cultural heritage. The article examines the construction of Oqsaroy, its historical role, and its significance from the perspective of modern architecture. Additionally, the paper discusses the role of Oqsaroy in Uzbekistan's global cultural identity, its place in tourism, and the future of its preservation and development.

Keywords: Oqsaroy, historical heritage, culture, architecture, Timurids, Samarkand, Uzbekistan, architectural monuments, tourism, heritage preservation.

Аннотация :Статья под названием "Оксарой: Историческая культура и наследие Узбекистана" исследует историческое, культурное и архитектурное значение Оксароя. Расположенный в центре Самарканда, Оксарой был важнейшим сооружением в период правления Тимуридов и продолжает олицетворять богатое культурное наследие Узбекистана. В статье рассматриваются строительство Оксароя, его историческая роль и значение с точки зрения современной архитектуры. Также обсуждается роль Оксароя в глобальной культурной идентичности Узбекистана, его место в туризме и будущее его сохранения и развития.

Ключевые слова: Оксарой, историческое наследие, культура, архитектура, Тимуриды, Самарканд, Узбекистан, архитектурные памятники, туризм, сохранение наследия.

Kirish : Oqsaroy — Shahrisabzdagi me'moriy yodgorlik (1380—1404). Amir Temur qurdirgan. Shaharning shim.sharqidagi bosh maydonda joylashgan. Bir za-monlar muhtasham, xashamatli bo'lgan bu saroyning bizgacha yemirilib, haroba holga kelgan ulkan peshtog'i, ikki chekkasidagi minorasi, saroy poydevorining bir qismigina saqlangan.[1] Oqsaroyning hozirgi ko'rinishi ham salobatli va go'zaldir. Bu salobatlilik va go'zallikka g'ishtlarning yaxlit bo'lib ko'rinishini ta'minlash — old va shimoliy devor yuzasini sirkor parchinlar bilan bir tekisda ishlash tufayli erishilgan. Peshtoq ravog'ining eni 22,5 m, bal. 40 m, umumiy bal. 50 m dan oshadi. Peshtoq minorasi ichidagi aylanma zina orqali yuqoriga chiqilgan.[2]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya : Oqsaroyning tarixiy va madaniy ahamiyatini o'rganishda G'. B. Pugachenkov va M. A. Pivovarovning "Temuriylar davri me'morchiligi" asari, A. S. Avdyushkin va V. G. Belyayevning "Samarqand: Tarixiy obidalar" kitoblari muhim manbalardir. Shuningdek,

Oqsaroyning turizm va madaniy merosdagi roli haqida I. A. Xodjaevning "O'zbekistonning madaniy merosi va turizm" maqolasi ham tahlil qilingan. Maqolada tarixiy-tahliliy metod, arxitektura tahlili, madaniy-ijtimoiy yondashuv va empirik tadqiqotlar ishlatilgan. Tarixiy ahamiyat, me'moriy dizayn va madaniy merosning hozirgi va kelajakdagi roli chuqur o'rganiladi.

Muhokama va natijalar : Oqsaroyning avvalgi holati to'g'risida faqat yozma manbalarga qarab fikr yuritish mumkin. 20 yil davomida qurilgan bu bino to'g'risida Abdurazzoq Samarqandiy quyidagicha ma'lumot beradi: "Temur ishga yaroqli bo'lganlarning hammasini Xorazmdan Movarounnahrda ko'chirish uchun buyruq berdi. Xorazmlik ustalar baland va salobatli saroy qurishdi, hozir u Oqsaroy nomi bilan mashhur".[3] Klavixos saroyini ko'zdan kechirganda (1404, 29 avg.) u hamon qurib bitkazilmagan, ba'zi joylarining koshinli naqshlari tugallanmagan edi. Shunga qaramay, juda hayratlanganligini, uning nihoyatda go'zalligini yozadi. Saroy qurilishida xo'razmlik ustalar qatori, mahalliy va b. davlatlardan kelgan ustalar ham qatnashgan. Peshtog'ida yozuvlar orasida eronlik Muhammad Yusuf Tabriziy nomi 2 marta takrorlangan.[4]

Yozma manbalarga ko'ra, Oqsaroy turar joy va jamoat binosi sifatida qurilib, xonalar hovli atrofida joylashgan. Bobur ma'lumotlariga ko'ra, hovli o'rtasida hovuz, to'rida gumbazli katta xona — devonxona, yonlarida maslahatchilar uchun kichik xona, hashamatli ravoqli bostirmalar, ichki tomonida haram va amirning xonasi joylashgan. Devonxona peshtog'ida arslon va quyosh tasviri va Temur davlatining 3 halqa shaklidagi nishoni bo'lgan. Gumbaz ichi va yonlariga, burchaklardagi minoralarga koshin-g'ishtlardan qalqon shaklidagi girih naqshlar ishlangan.[5] Bu naqshlar silliqlangan g'isht va feruza rangli sirkor parchindan yozilgan ku-fiy xatlar zamini yo'g'on ko'k belboqqa o'xshash mujassamotni tashkil etgan. O. devorlaridagi ranglar jilosi, tari-xiy, falsafiy va diniy mavzudagi, kufiy, suls yozuvlari, koshinkori be-zaklar, islamiy, girih naqshlarning o'zaro uyg'unligi binoga ajoyib va sehrli mazmun bag'ishlagan. Ranglarning oy yorug'ida jilolaniboqarib ko'rinishidan bino Oqsaroy deb nomlangan.[6]

Saroyning o'ziga xos xususiyatlaridan biri — tom tepasiga ishlangan hrvuzdir. Hovuzga suv Taxtaqoracha dovonidan qo'rg'oshin quvurlar orqali oqib kelib, undan sharshara hosil qilib pastga tushirilgan.[7]

1707 yilda Buxoro xoni Ubaydullaxon Oqsaroy peshtog'i ostida toj kiyib, taxtga o'tirganligi peshtoqning o'sha paytda butun ekanligidan darak beradi. 1973—75 yillarda arxeologik tadqiqotlar, 1994—96 yillarda konservatsiya ishlari olib borilgan.

Xulosa: Oqsaroy, O'zbekistonning boy madaniy merosini o'zida aks ettiruvchi muhim tarixiy yodgorlikdir. Uning qurilishi va Temuriylar davridagi roli, arxitektura va madaniyatga qo'shgan hissasi bugungi kunda ham katta ahamiyatga ega. Oqsaroy nafaqat tarixiy, balki turizm sohasida ham O'zbekistonning jahon miqyosidagi o'rnini mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, uning kelajakdagi saqlanishi va rivojlanishi madaniy merosni avlodlar uchun asrashda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Расторгуева В.С., Молчанова Е.К. Среднеперсидский язык// Основы иранского языкознания. Среднеиранские языки М., 1081. С. 55.
2. Агзамова Г. Сўнги ўрта асрлар ўрта Осиё шаҳарларида хунармандчилик ва савдо., 2000. 39-бет.

3. Мукминова Р. Г. Социальная дифференциация населения городов Узбекистана в X-XVII вв. Ташкент, 1985. С. 130
4. А.Сагдуллаев ва бошқалар. Қадимги Кеш-Шахрисабз тарихидан лавҳалар. -Т.: 1998 .
5. П. Равшанов. Нахшаб ва Кеш тарихи манбалари. Қарши 2005
6. Равшанов П. Хушвақов Н. Қашқадарё тарихига Саёҳат. Тошкент, 2020.
7. А. К у н. Очерки Шахрисабзского бекства, СПб, 1880, отдельный оттиск из ЗИРГО по отделению этнографии, т.